

QO‘G‘IRCHOQBOZLIKNING ASOSIY SPESIFIKASI VA TARIXI**Sobirjonova Umida****O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
teatr san’ati fakulteti 3-bosqich
qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada teatr san’atining qo‘g‘irchoqbozlik turi, kelib-chiqish tarixi, spesifikasi, san’at turlari ichida madaniy-ma’rifiy ahamiyati borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoqbozlik, spesifika, san’at, madaniy-ma’rifiy, teatr

Аннотация: В этой статье рассматривается кукольный вид театрального искусства, история его возникновения, специфика, культурно-просветительское значение в рамках вида искусства.

Ключевые слова: кукольное искусство, специфика, искусство, культурно-просветительское, театральное

Qo‘g‘irchoq teatri – teatr san’atining eng qadimgi turlaridan biridir. Qo‘g‘irchoq teatri ilk bor turmushda qush va hayvonlarga taqlid qilish, ajdodlar ruhiga sig‘inish natijasi oqibatida, san’at sifatida paydo bo‘ladi va hayotiy shakllanishini e’tiborga olinsa, qo‘g‘irchoq teatri teatr san’atining ibtidosi bo‘lib chiqadi. Manbalar o‘rganilganda miloddan avvalgi XVI asrdayoq Misrga qarashli bir necha hududlarda qo‘g‘irchoq tomoshalari ma’lum bo‘lgan. Keyinchalik bu tomosha turi qadimgi Yunoniston, Hindiston va Xitoyda rivojlanadi. Osiyoda qo‘g‘irchoq teatri boy tarixga ega. Uning taraqqiyoti va shakllanishi to‘g‘risida hali o‘rganiladigan manba ekanligi ma’lum. Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga qaraganda qo‘g‘irchoq tomoshalarida yoshu qari baravar ishtirok etgan va bahramand bo‘lgan.

O‘zbek an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri ham mustaqil teatr turi sifatida rivojlangan bo‘lib, uning ijrochiligida belgilangan talablar, ma’lum qonunqoidalar bo‘lgan. Qo‘g‘irchoqbozlarning “Risoi qo‘g‘irchoq” (“Risoi lu’bat”) deb atalgan

o‘z risolasi bo‘lib, u mehtarboshi, to‘da oqsoqollari tomonidan e‘tiqod bilan avaylab saqlangan, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Risolada yozilgan talablarga hamisha ham amal qilinmagan, ajdodlar xotirasi, soha pirlarini ranjitmaslik, ularning ruhi-poklarini shod aylash maqsadida risolaga alohida hurmat bilan qaralgan.

Qo‘g‘irchoq teatri ijrochiligi qoidalari an‘anaviy teatrning boshqa turlari kabi og‘zaki xarakterga ega bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bu san‘at bilan maxsus bir usta qo‘lida o‘n yillab tarbiya topib, soha sirlarini o‘zlashtirgan shogirdgina mustaqil shug‘ullangan. Tabiiyki, bu san‘at turi bilan havaskorlar shug‘ullanmagan. Shogird ko‘p yillar davomida kuzatish, mashq qilish, yodlash orqali qo‘g‘irchoq boshqarish asoslarini puxta o‘rgangan. Ma‘lum ko‘nikma va mohirlikka erishgach, bu sohada mustaqil faoliyat yuritish huquqiga ega bo‘lgan.

«Qo‘g‘irchoq» (qovurchoq) so‘zi o‘zbek qo‘g‘ir (qovur) hamda qo‘shimcha choq (sufiks) dan iborat, asli qo‘g‘irmoch so‘zidan olingan. Qo‘g‘irmoch aslida qovurilgan bug‘doy, ko‘chma ma‘nosi – aqlli, topqir, ham shirin zamon, tili biyron demakdir. Choq – kichraytirish qo‘shimchasi. Shunga ko‘ra «qo‘g‘irchoq» (qovurchoq) – mitti polvon, jajji odamcha degan ma‘noni bildiradi. Qabarchuq (qovarchog‘) atamasi ham deyarli shunday o‘zgarishga uchragan, u qabariq (qovariq) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, qadoq, qo‘l, ko‘chma ma‘noda mehnatkash, tirishqoq ma‘nosini anglatadi. «Choq» kichraytirish belgisi bo‘lib chayir mehnatkash «o‘z maqsadi sari tirishib harakat qiluvchi odamcha» demakdir.

Qo‘l qo‘g‘irchoqlariga qaraganda iplar vositasida jonlantiriladigan qo‘g‘irchoqlarni boshqarish nisbatan mukammal va murakkab. Qo‘l qo‘g‘irchoqlarida qo‘g‘irchoqning pastki qismi, ya‘ni oyoqlari kamdan-kam hollarda tasvirlansa, iplar orqali boshqariladigan qo‘g‘irchoq turlarida qo‘g‘irchoqning butun gavdasi: boshi, qo‘li, oyoqlari to‘laligicha tasvirlangan.

Tabiiyki, bu ishni yanada murakkablashtirgan. Bunda qo‘g‘irchoqboz birvarakayiga uning butun gavdasi bilan turli murakkab holatlarni ifodalashiga to‘g‘ri kelgan. Manbalarda ko‘rsatilishicha, “Chodir xayol” teatrining bizga yetib kelgan yagona “Sarkardalar” pyesasini ijro etishda aktyorlar soni kam bo‘lishiga

qaramay, sahnadagi voqealar izchilligi uzilmagan, bir qahramon ketib o'rnini boshqasi egallagan. Ko'p yillik izlanish, mehnat aktyorlarni o'z sohalarida professional bo'lib yetishlarini ta'minlagan.

Turli qiyofadagi qo'g'irchoqlarni o'ynatayotgan aktyorlar personajning xarakter-xususiyati, katta-kichikligi va fazilatlariga qarab, nutq ustida izlanadi, so'zlashuv siri ustida tinmay ish olib boradi. Masalan, dag'dag'a bilan kelib, hamma yoqni ostin-ustin qilib yuborishga qodir dahshatli dev qiyofasidagi qo'g'irchoq sahnaga kirib kelishi oldidan shamol, bo'ron ovozi zalni qamrab oladi. Shovqin bilan birga «qah-qah» urib dev chiqib keladi. Ana shu muhitga mos nutq ko'rinishini aktyor o'z ovozi orqali ifoda etadi.

Dramatik san'atdan sahnaviy nutqni olib qo'yilsa, u o'z faoliyatini tugatadi, pantomima san'atiga aylanadi. Dramatik teatrning asosiy ifoda vositasi jonli so'z hisoblanadi. Undan nutqni olib tashlash, bu demak operadan, musiqiy teatrdan qo'shiqni, baletdan raqsni olib tashlash bilan barobar bo'ladi. Qo'g'irchoq teatridan qo'g'irchoqni olib tashlansa, demak u o'z vazifasini bajara olmaydi. Nutqsiz u bemalol mavjudligini namoyish qila oladi. Ammo jonli so'z qo'g'irchoq teatrida ham asosiy ifoda vositasi bo'lib, uning ikki sababi mavjuddir. Birinchidan, qo'g'irchoq teatri san'atining asosi bo'lgan qo'g'irchoqbozni inkor etmaydi. Ikkinchidan, so'zning qo'g'irchoq teatrida boyitishidir. Qo'g'irchoq teatrida jonli so'z, dramatik teatr san'atidek tabiiy tug'ilmaydi. U o'ziga xos paydo bo'ladi. Chunki u qo'g'irchoqning yasama qaramaqarlishiligidan kelib chiqqan holda paydo bo'ladi. Qo'g'irchoqboz o'zi nomidan emas, qo'g'irchoq nomidan gapiradi va uning ko'rsatmasini bajaradi. Ana shu bois qo'g'irchoq teatrdan nutq shartlidir.

Qo'g'irchoq teatri aktyorining nutqi ko'proq tasvironaligi bilan ifodalanadi. Bu obrazda, nutqiy xarakteristikada namoyon bo'ladi. Sir emaski, an'anaviy qo'g'irchoq teatri san'atida nisbatan turg'unlik bo'lgan. Shu bilan birga yana shuni aytib o'tish kerakki, har bir mukammallikka intilayotgan shogird o'z sohasini puxta o'rgangach, kichik epizod bo'lsa-da tomoshaga o'z topilmasini, fantaziyasi hosilini

qo'shgan. Demakki, mazmun va ijro doim yangilanib, yanada boyib, mukammallashib borgan.

So'z an'anaviy teatr xususida borarkan shuni unutmash kerakki, har qanday teatr turining dastlabki pog'onasi, tarixiy yo'li, professional teatr paydo bo'lguniga qadar xalq orasida mashhur bo'lgan, sevilgan, kutilgan tomoshada tomoshaviylik ustun turadi. Tomoshaning tomoshabop bo'lishi eng birinchi galdagi talabdir. Yo'qsa, ijrochi tomoshabinni yo'qotadi. Uni yo'qotish esa nafaqat tirikchilik, balki or-nomus, hayot-mamot masalasi bilantengdir. Shu tufayli an'anaviy qo'g'irchoq teatrida tomoshaning tomoshaviyligini ta'minlaydigan omillarga mas'uliyat va jiddiylik bilan yondashilgan. Qo'g'irchoq plastik harakatlarining har bir qismi o'zining "boshlanish" va "xotima"sidan tarkib topadi. Qo'g'irchoq personajni badiiy obraz sifatida talqin qilinishida harakatlarning tavsiflari bilan cheklanib bo'lmaydi. Chunki ular mashqlarda muntazam qo'llanib boriladigan alohida sifatlar hisoblanadi.

Qo'g'irchoqning harakati tomoshabinga tushunarli bo'ladigan plastik jumla, gap deyish mumkin. Plastik ifodalanadigan jumlagi aktyorda mavjud bo'lgan jonli so'z hamohang bo'ladi. Bu gap qo'g'irchoq plastik harakatini mantiqiy mazmuni va hissiy ifodasini asoslab beradi. Shuning uchun mashqlar vaqtida sharxlarni ovoz chiqarib, yoki ichida o'qib berish tavsiya qilinadi. Bu holatda aktyor berilgan shart-sharoitlarni shaxsan to'qib, fantaziyasini ishga solib turishi kerak. Bir tomondan qo'g'irchoqning gavdasi, oyoq-qo'llari, boshining plastik to'g'ri harakatlari, ikkinchi tomondan aktyorning fantaziyasi, hayotiy ko'rgan-kechirganlari, bilimi, saviyasi tug'diradigan tasavvurlar obrazning ichki mazmun-mohiyatini to'laqonli to'ldirib boradi. Yuqorida aytib o'tilgan plastik harakatning boshlanishi va tugallanishi haqidagi fikr ana shu qonuniyatlarga asoslanadi. Plastik harakatning boshlanishi unga tayyorlanish va bajarishga kirishishni anglatadi.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir xatti-harakatni amalga oshirishdan oldin inson organizmda shu harakatga mos tayyorlanish jarayoni mexanik tarzda, inson maxsus e'tibor bermagani holda bo'lib o'tadi. Masalan, oddiygina o'tirgan holidan

oyoqqa turishni olaylik. O'rnidan turish uchun gavda oldinga qarab, ma'lum darajada ochiladi yoki birovga shapaloq tortib yuborish uchun qo'li bilan hamla qiladi. Asosiy harakat oldidan yuz beradigan bunday tayyorgarlik ko'rish harakati ashula aytish, yoki notiqlikda gapirish oldidan chuqur nafas olishni eslatadi. Harakat oldidan trostning nozik ishlatilishi bilan qo'g'irchoqning qomatini sal-pal ko'tarib, qarama-qarshi tomondan ozroq burish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy qo'g'irchoq teatri ijrochiligida qo'g'irchoq teatri aktyori xalq orasidan chiqqan maxsus vakil sifatida jamiyat ro'parasiga oyna tutgan. Uning badiiy-estetik qarashlarining mezonini belgilagan va professional ijrochilik maktabiga ega bo'lgan. Bunda professional deganda biz, serqirralikka urg'u berishni istardik. Boisi birvarakayiga to'rt-besh hunarni egasiga aylanish, o'z sohasining tarkibiy qismlarini chuqur o'zlashtirish - bu chindan ham katta mahoratni talab qiladi. Ayniqsa, hozirgi kunda. Bu borada o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri professional tipdagi qo'g'irchoq teatri ijrochiligi uchun ibrat bo'la oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 4
2. Azimova L.Q. Zamonaviy qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi. Magistrlik dissertatsiyasi. - T.: 2013
3. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi. Darslik. -T.: 2007.
4. Boltaboeva U., Sh U., Rahmonova N. CREATIVE PERSON-THE ROLE OF LIVE WORD IN EDUCATING AN ACTOR //European Journal of Arts. – 2019. – №. 3.
5. Усмонов Ш. САҲНАДА ТАШҚИ ҚИЁФАГА АКТЁРНИНГ МУНОСАБАТИ //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II.